



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners.....	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv.....	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili.....	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века.....	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана.....	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



BITIRUVCHI SINIF O'QUVCHILARINI KASB- HUNARGA YO'NALTIRISH JARAYONLARIDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING AHAMIYATI

Asilova Sanobar Xatambojeva

Qo'qon universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası
 katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'limi tizimida bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. O'quvchilarning shaxsiy qobiliyati, qiziqishi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish orqali kasb tanlash samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida o'qituvchi va psixolog hamkorligi, diagnostik metodlardan foydalanish hamda zamonaviy ta'lim yondashuvlarining ahamiyati o'rganiladi. Bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan individual yondashuvga asoslanib kasb-hunarga yo'naltirishning afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqiladi. Maqolada bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati asoslab berilib, ota-onalar va pedagoglar uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ongli kasb tanlash, yuqori talabga ega kelajak kasblari haqida o'quvchilarga tushunchalar berishning afzallik tomonlari ko'rib chiqilgan bo'lib, shu asosda ota-onalarga tavsiyalar berishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, individual yondashuv, pedagogika, o'qituvchi roli, kasbiy maslahat, bitiruvchi sinf, kasbiy diagnostika.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations of an individual approach in the process of career guidance for graduating students within the school education system. It highlights ways to improve the effectiveness of career choice by taking into account students' individual abilities, interests, and psychological characteristics. The study also examines the importance of teacher-psychologist collaboration, the use of diagnostic methods, and modern educational approaches in organizing career guidance activities. Furthermore, the advantages and limitations of applying an individual approach in working with graduating students are discussed. The article substantiates the significance of an individual approach in career guidance and provides practical recommendations for parents and educators. In addition, it explores the benefits of developing students' awareness of conscious career choice and informing them about future in-demand professions, along with offering recommendations for parents based on these considerations.

Key words: career guidance, individual approach, pedagogy, teacher's role, career advice, graduating class, career diagnostics.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические основы индивидуального подхода в процессе профессиональной ориентации учащихся выпускных классов в системе школьного образования. Освещаются вопросы повышения эффективности выбора профессии посредством учёта индивидуальных способностей, интересов и психологических особенностей учащихся. Также рассматривается значение сотрудничества учителя и психолога, использования диагностических методов, а также современных образовательных подходов в организации профориентационной работы. Обсуждаются преимущества и недостатки профессиональной ориентации выпускников на основе индивидуального подхода. В статье обосновывается значимость индивидуального подхода в процессе профессиональной ориентации учащихся выпускных классов и разрабатываются рекомендации для родителей и педагогов. Рассматриваются преимущества формирования у учащихся осознанного выбора профессии и ознакомления их с востребованными профессиями будущего, а также приводятся рекомендации для родителей по данным вопросам.

Ключевые слова: профориентация, индивидуальный подход, педагогика, роль учителя, профессиональное консультирование, выпускной класс, профессиональная диагностика.

KIRISH

Kasb-hunar haqida so'z ketar ekan, biz ota-bobolarimiz qadimdan farzandlar tarbiyasida kasb o'rgatish va hunar egallashga alohida e'tibor qaratib kelganining guvohi bo'lamiz. So'nggi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ham o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Inson hayotida qabul qilinadigan eng murakkab va mas'uliyatli qarorlardan biri kasb tanlash bilan bog'liqdir. Bu qarorni to'g'ri qabul qilish oson emas, chunki unga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p. Kasbiy faoliyat insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi, shu sababli kasb tanlashni dolzarb ijtimoiy masala sifatida baholash o'rinlidir.

Har qanday muhim qarorni qabul qilishda bo'lgani kabi, kasb tanlash jarayonida ham inson aniq bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar - pedagog va psixologlarning tavsiyalariga muhtoj bo'ladi. Bugungi globallashuv jarayonida va mehnat bozorining tez o'zgarib borishi sharoitida maktab bitiruvchilari oldida ongli va to'g'ri kasb tanlash talabi yanada kuchaymoqda. Shu boisdan maktab jamoalari bu jarayonga ustuvor vazifa sifatida yondashmoqda. Ayniqsa, bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirishda ularning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olish muhimdir. Bu esa o'qituvchilar, sinf rahbarlari va maktab psixologlaridan katta mas'uliyat talab etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar kasb tanlashda mustaqil va ongli qaror qabul qilishda qiynaladilar. Bunga tashqi ta'sirlar, shuningdek, kasblar haqida yetarli ma'lumotga ega emaslik sabab bo'lishi mumkin.

Shu bois, ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri - o'quvchilarda kasbga ongli munosabatni shakllantirish, ularni mehnatga va amaliy ko'nikmalarga yo'naltirishdir. Kasb-hunarga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning qobiliyatini erta aniqlash va ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda mehnat bozoriga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir. Shu sababli maktab ta'limi nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirishi lozim. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida qo'llaniladigan har bir usul ularning kelajakdagi hayotida muhim o'rin tutadi. Tanlangan kasb nafaqat shaxsiy hayot, balki Vatan taraqqiyotiga ham xizmat qilishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbga yo'naltirish - bu o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni to'g'ri kasb tanlashga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon pedagogika va psixologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq. Buyuk Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida ham odamning kasb tanlashi, bunga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, umuman, inson va kasb o'rtasidagi munosabat masalasiga alohida e'tiborni ko'rish mumkin. Masalan, Ar-Roziy tabiblik kasbini mukammal egallash shartlari haqida mulohaza yuritib, "Nafaqat o'qishgina, balki o'qiganni muhokama eta olish, o'qiganlarini ba'zi hollarda tatbiq qila olish qobiliyatigina tabibni tabib qiladi", - deya ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida inson jamiyatda o'z qobiliyatiga mos faoliyatni tanlagandagina barkamollikka erishishini ta'kidlaydi [1, 45-60-b.].

Bundan ko'rinib turibdiki, kasb tanlashda individual yondashuv zarurligini asoslaydi. Ibn Sino "Donishnoma" asarida insonning tabiiy qobiliyatlari va kasb o'rtasidagi moslik muhimligini aytib o'tadi [2, 70-b.]. Bu g'oya o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda individual yondashuvning ahamiyatini ochib beradi.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida ilmning amaliyot bilan uyg'unligini alohida e'tirof etgan [3, 40-b.]. Bu esa kasb tanlashda nafaqat qiziqish, balki amaliy ko'nikmalarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Yuqoridagi qarashlardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim tizimida individual yondashuv asosida kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy ildizlari qadimdan mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy pedagogika vakillaridan pedagog olim L.S. Vygotskiy ta'lim jarayonini shaxs rivojlanishi bilan uzviy bog'liq deb hisoblab, har bir o'quvchining individual rivojlanish darajasini hisobga olish zarurligini ta'kidlab o'tadi [4, 86-b.]. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'qituvchining har bir o'quvchiga alohida yondashuvini ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, E.A. Klimov kasb tanlashni shaxsning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqadi va "har bir inson o'ziga mos kasbni tanlagandagina samarali faoliyat yurita oladi", degan g'oyani ilgari suradi [5, 120-135-b.].

O'zbek olimlaridan Quدرات Abdurahmonov ta'limda innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning bilish faolligini oshirishini ta'kidlaydi [6, 112-b.].

Jahongir Yo'ldashev esa raqamli ta'lim muhitini yaratish va undan samarali foydalanish masalalarini yoritadi [7, 95-b.].

UNESCO hisobotlarida ham maktabgacha ta'limda AKTdan foydalanish orqali kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlari o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyatini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat, so'rovnoma, pedagogik tajriba, shuningdek, kasbiy motivatsiya, kasbiy moslik va moyillikni aniqlash metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Olingan empirik ma'lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi. Kuzatish metodi orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirilish holati, ularning faolligi va qiziqish darajasi o'rganildi. Suhbat metodi yordamida o'qituvchilarning individual yondashuvni qo'llashdagi tajribalari, mavjud muammolar va afzalliklari aniqlashtirildi. So'rovnoma orqali esa ota-onalar va pedagoglarning o'zaro hamkorligi, shuningdek, kasb tanlash jarayonidagi yondashuvlarga bo'lgan munosabatlari tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilar tajriba va nazorat guruhriga ajratildi. Tajriba guruhida individual yondashuv asosida maxsus ishlab chiqilgan kasbga yo'naltirish dasturi qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy usullar asosida ish olib borildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning kasbiy motivatsiyasi, qiziqishlari va mosligi maxsus diagnostik metodikalar orqali baholandi. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida ularning qiyosiy va statistik tahlili amalga oshirildi. Olingan natijalar individual yondashuv asosida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish tizimining samaradorligini aniqlash va baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktablarda bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni ko'p tomonlama hamkorlikni talab etadi. Bu jarayonda maktab jamoasi, psixologlar va ota-onalar o'rtasidagi uzviy aloqa muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, individual yondashuvni samarali tashkil etishda oila va maktab hamkorligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki o'quvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari faqat ta'lim muassasasida emas, balki oilaviy muhitda ham shakllanadi.

Maktabdan tashqari vaqtlarda ota-onalarning farzandlariga kasb tanlashda yo'l-yo'riq ko'rsatishi individual yondashuvni yanada mustahkamlaydi. Ota-onalar farzandining qiziqishlari va imkoniyatlarini yaxshi bilgan holda uni to'g'ri yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda o'qituvchi va ota-onaning yagona maqsad asosida ishlashi o'quvchining ongli kasb tanlashiga xizmat qiladi. Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda individual yondashuv ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu jarayon faqat kasblar haqida ma'lumot berish bilan cheklanmaydi, balki har bir o'quvchining ichki salohiyatini aniqlash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan kasb tanlash - bu oddiy tanlov emas, balki shaxsning hayotiy yo'lini belgilovchi muhim bosqichdir. O'smirlik davrida o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Aynan shu davrda individual yondashuv asosida olib borilgan kasbga yo'naltirish ishlari eng samarali natija beradi. Chunki har bir o'quvchi bu bosqichda o'z qiziqishlari va imkoniyatlarini anglashga intiladi.

Kasbga yo'naltirish jarayonini samarali tashkil etishda "Xohlayman + Qodirman + Kerak" formulasi muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq bu formulani individual yondashuv asosida qo'llash yanada yuqori samaradorlik beradi:

1. "Xohlayman" - o'quvchining qiziqishlari, orzu-istaklari va motivatsiyasini anglatadi. Individual yondashuvda bu komponent har bir o'quvchi bilan alohida suhbat, so'rovnoma va kuzatish orqali aniqlanadi.
2. "Qodirman" - o'quvchining intellektual salohiyati, bilim darajasi, sog'lig'i va iste'dodini o'z ichiga oladi. Bu jihatni aniqlashda psixologik testlar va diagnostika muhim o'rin tutadi.
3. "Kerak" - jamiyat va mehnat bozorining ehtiyojlarini ifodalaydi. Individual yondashuv bu omilni o'quvchiga mos ravishda tushuntirishni, ya'ni uning imkoniyatlarini real ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirishni talab etadi.

Mazkur uch omilning uyg'unligi har bir o'quvchi uchun individual kasbiy yo'nalishni belgilash imkonini beradi. Agar ushbu komponentlardan biri e'tibordan chetda qolsa, kasb tanlash jarayonida nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan anglashimiz mumkinki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish tizimi o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini to'liq hisobga olish, ularning ongli tanlov qilishiga yordam berish va kelajakda kasbiy muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi. Shu sababli maktab, oila va jamiyat hamkorligi yordamida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish, jarayonlarda o'quvchilarga individual yondashuvni kuchaytirish zarurati kuzatilmoqda. Individual yondashuv asosida ishlash ta'lim jarayonida, ayniqsa, bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyatga egaligi haqida yuqorida aytib o'tdik. Biroq u nafaqat afzalliklarga, balki ayrim cheklolarga ham ega. Bu haqida pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbat jarayonlarida individual yondashuv asosida olib boriladigan ishlarning afzallik va kamchiliklarini aytib o'tishdi. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz (1-jadval).

Afzalliklar	Kamchiliklar
Individual yondashuv o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Bu esa to'g'ri kasb tanlashga yordam beradi. Bu g'oya Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan individual rivojlanish nazariyasiga mos keladi.	Har bir o'quvchi bilan alohida ishlash o'qituvchidan ko'p vaqt va kuch talab etadi. Bu ko'pincha noqulaylik va qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.
Evgeniy Klimov ta'kidlaganidek, shaxsga mos kasb tanlash samarali faoliyatning asosidir. Individual ishlash bu moslikni aniqlashga yordam beradi	O'quvchilar soni ko'p bo'lsa, individual yondashuvni to'liq amalga oshirish murakkablashadi. O'quvchilarni to'liq qamrab olish katta mehnat talab qilishi mumkin.
Shaxsiy qiziqishlarga mos topshiriqlar berilganda o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi	Individual topshiriqlar, testlar va metodik materiallarni tayyorlash qo'shimcha resurslarni talab qiladi.
Individual ishlash o'quvchining mustaqilligi va shaxsiy mas'uliyatini rivojlantirib, keyinchalik jamoada samarali ishlashiga zamin yaratadi.	Faqat individual ishlash jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlanishini cheklashi mumkin.
Individual ishlash jarayonida o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishini rag'batlantiradi va pedagogik mahoratning oshishiga xizmat qiladi. .	Individual yondashuv samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining tajribasi va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Individual yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim bo'lib, ayniqsa, kasbga yo'naltirish jarayonida katta ahamiyatga ega. Biroq uni samarali qo'llash uchun vaqt, metodik ta'minot va o'qituvchidan yuqori malaka talab etiladi. Shu sababli amaliyotda pedagoglar uchun eng maqbul yechim individual va guruhli yondashuvni uyg'unlashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada jami 86 nafar ota-ona va 24 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Ota-onalarga "Farzandingizni kasb tanlashida maktabning o'rni qay darajada deb hisoblaysiz?" savoli berildi. Natijalarga ko'ra:

- 62% ota-onalar maktabning roli juda muhim deb baholadi;
 - 28% ota-onalar qisman muhim deb hisoblashdi;
 - 10% ota-onalar esa maktab rolini yetarli emas deb baholadi.
- O'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan "Ota-onalar bilan hamkorlik natijalari sizni qoniqtiradimi?" savoliga:
- 54% o'qituvchilar qoniqarli deb javob berdi;-• 33% o'qituvchilar qisman qoniqarli deb baholadi;
 - 13% o'qituvchilar esa hamkorlikni yetarli emas deb hisoblashdi.

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar maktabning kasbga yo'naltirishdagi rolini yuqori baholashadi, biroq o'qituvchilar ota-onalar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu esa individual yondashuvni samarali tashkil etishda oila va maktab hamkorligini mustahkamlash muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot 11-sinf o'quvchilari orasida o'tkazildi. Unda jami 116 nafar bitiruvchi sinf o'quvchisi ishtirok etdi.

O'quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Tajriba guruhida individual yondashuv asosida kasb-hunarga yo'naltirish ishlari olib borildi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy usullar qo'llanildi.

Tadqiqot olib borish jarayonida quyidagi natijalarga ega bo'lindi.

Olingan natijalarga ko'ra, kasb tanlash aniqligi tajriba guruhida 78% bo'lib, sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, kasbiy motivatsiya darajasi tajriba guruhida 72% yuqori ko'rsatkichni tashkil qilib, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 47% bo'ldi.

Kasbiy moslik ko'rsatkichlari (Holland kasbiy tipologiya metodi asosida) tajriba guruhida 76%, nazorat guruhida esa 49% ni tashkil etdi.

Umumiy qilib olganda, individual yondashuv qo'llanilgan guruhda barcha ko'rsatkichlar o'rtacha 25–27% ga yuqoriligi kuzatildi. Bu natijalar individual yondashuvning samaradorligini ko'rsatib berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida individual yondashuvni qo'llash ularning kasbiy ongini shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish hamda ichki motivatsiyasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Olingan empirik natijalar tajriba guruhida kasb tanlash aniqligi, kasbiy motivatsiya va kasbiy moslik ko'rsatkichlarining sezilarli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi.

Mazkur natijalar psixologik-pedagogik nazariyalar bilan hamohangdir. Xususan, individual yondashuv o'quvchilarning "yaqin rivojlanish zonasi"ni hisobga olgan holda ularning real imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Bu esa har bir o'quvchining o'z qobiliyatiga mos kasbni tanlash ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, kasb tanlash jarayonida shaxsiy qiziqish, imkoniyat va mehnat bozori ehtiyojlarini uyg'unlashtirish ("Xohlayman – Qodirman – Kerak" modeli) individual yondashuv samaradorligini yanada kuchaytirishi aniqlandi.



Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat – o'qituvchi, psixolog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik darajasining kasbga yo'naltirish natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishidir. So'rovnoma natijalari ota-onalar maktabning rolini yuqori baholashini ko'rsatgan bo'lsa-da, o'qituvchilar hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidladilar. Bu esa individual yondashuvni samarali amalga oshirishda tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimligini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlar bilan taqqoslaganda ham olingan natijalar mos keladi. Xususan, xalqaro tadqiqotlar individual yondashuv asosida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish dasturlari o'quvchilarning kasbiy qaror qabul qilish darajasi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish individual yondashuv samaradorligini yanada kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq tadqiqot natijalari ayrim cheklovlarni ham ko'rsatdi. Xususan, individual yondashuvni amalga oshirish ko'proq vaqt, metodik ta'minot va pedagogik mahorat talab etadi. Katta sinflarda barcha o'quvchilarni to'liq qamrab olish murakkablashadi. Shu sababli amaliyotda individual va guruhli yondashuvni uyg'unlashtirish eng maqbul yechim sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, individual ishlash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirsa-da, jamoaviy ko'nikmalarni shakllantirish uchun qo'shimcha faoliyatlar zarurligi aniqlandi. Shu bois, kasbga yo'naltirish jarayonida treninglar, guruhli loyihalar va interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari individual yondashuvning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa uni ta'lim tizimida keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish samaradorligi so'nggi yillarda olib borilgan xalqaro tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Xususan, 2025-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda individual qo'llab-quvvatlash tizimi asosida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish jarayonlari o'quvchilarning kasbiy bilimlari va qaror qabul qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tahlillar kasbga yo'naltirish dasturlari o'quvchilarning ongli kasb tanlash darajasini 35–45% gacha oshirishini ko'rsatmoqda. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) hisobotlariga ko'ra, bugungi kunda ko'plab o'quvchilar samarali kasbga yo'naltirish faoliyatlarida yetarlicha ishtirok etmayotgani sababli, individual yondashuvni keng joriy etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida individual kasbiy yo'naltirish tizimlari shakllanib, bu jarayonning samaradorligini yanada oshirmoqda.

Maktablarda olib borilayotgan kasb-hunarga yo'naltirish ishlari va o'quvchilarni to'g'ri kasb-hunarga yo'naltirish pedagogik jamoadan katta mas'uliyat talab etadigan jarayondir. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish tizimi esa o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim pedagogik omil hisoblanadi. Shu bois ushbu yondashuvni ta'lim tizimiga keng joriy etishga dolzarb vazifa sifatida qarash lozimdir. O'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini ochib berish, kasbiy moslikni ta'minlash va ongli kasb tanlashni shakllantirish uchun bitiruvchi sinf o'quvchilariga individual yondashuv eng samarali usullardan biridir. Pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish jarayoni o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Ota-onalarni jarayonga jalb etish, kasbga yo'naltirish dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, individual konsultatsiya kunlarini tashkil etish, psixodiagnostik metodlardan muntazam foydalanish, o'qituvchi va psixolog hamkorligini uzviy yo'lga qo'yish orqali bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida yanada samaraga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarova O., Hayitboyev M., Nishonov M. Pedagogika. - Toshkent: Talqin, 2008.
2. Yo'ldashev J. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari. - Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 200 b.
3. Anvarova D., Ergashev P. S. Kasbga yo'naltirish va kasb tanlash asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. - 128 bet.
4. Mavlonova R. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent: Fan, 2019.
5. Karimova D. Interfaol ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: Innovatsiya, 2021.
6. Asilova S., Usmonova N. Kasbiy pedagogika. - Qo'qon, 2024.
7. Asilova S. X. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari. - 2023.
8. Arapovna Y. L. F., Xatamboevna A. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqish motivlarini rivojlantirishning psixologik omillari // Kokand University Research Base. - 2024. - B. 120-122.
9. Asilova S., Abdulxaqov N. Maktab bitiruvchilarini kasb-hunar tanlash muammolariga psixologik yordam // Interpretation and Researches. - 2024.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.